



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiq ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	



NUTQ RIVOJLANISHI ORQADA QOLGAN BOLALARDA QO'LLANILADIGAN INNOVATION USULLARI SAMARADORLIGI

Ahmedova Nargiza Muzaffarovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 2-kurs

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalar bilan ishlashda innovatsion pedagogik va logopedik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda interfaol o'yinlar, multimedia vositalari, virtual logoped dasturlari, sensorli muhit va audio-feedback kabi zamonaviy texnologiyalarning nutqni shakllantirishga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday usullar bolalarning fonematik eshituvini, so'z boyligini, artikulyatsiya ko'nikmalarini va muloqot kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar an'anaviy metodlarga nisbatan bolalarda nutq faoliyatiga ijobiy motivatsiya uyg'otadi, mustaqil fikrlashni hamda muloqotga kirishish qobiliyatini kuchaytiradi. Maqola logopedlar, maxsus pedagoglar va psixologlar uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan metodik manba sifatida foydalidir.

Kalit so'zlar: logopedik mashg'ulotlar, innovatsion texnologiyalar, interfaol o'yinlar, multimedia vositalari, sensorli muhit, raqamli ta'lim, motivatsiya, maxsus pedagogika, psixologik rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of innovative pedagogical and speech therapy approaches in working with children with delayed speech development. The study examines the impact of modern technologies such as interactive games, multimedia tools, virtual speech therapy programs, sensory environments, and audio feedback on the formation of speech. The results indicate that these methods significantly enhance children's phonemic hearing, vocabulary, articulation skills, and communication competence. Moreover, compared to traditional methods, innovative approaches foster positive motivation for speech activity, promote independent thinking, and strengthen the ability to communicate. The article serves as a methodological resource providing practical recommendations for speech therapists, special educators, and psychologists.

Key words: speech therapy exercises, innovative technologies, interactive games, multimedia tools, sensory environment, digital education, motivation, special pedagogy, psychological development.

Аннотация: В статье анализируется эффективность инновационных педагогических и логопедических подходов в работе с детьми, имеющими задержку речевого развития. В исследовании рассматривается влияние современных технологий, таких как интерактивные игры, мультимедийные средства, виртуальные логопедические программы, сенсорная среда и аудио-фидбэк, на формирование речи. Результаты показывают, что применение данных методов значительно развивает фонематический слух, словарный запас, артикуляционные навыки и коммуникативную компетентность детей. Кроме того, инновационные подходы по сравнению с традиционными методами формируют у детей положительную мотивацию к речевой деятельности, развивают самостоятельное мышление и способность к общению. Статья может служить методическим источником с практическими рекомендациями для логопедов, дефектологов и психологов.

Ключевые слова: логопедические упражнения, инновационные технологии, интерактивные игры, мультимедийные средства, сенсорная среда, цифровое обучение, мотивация, специальная педагогика, психологическое развитие.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – har bir bolaning individual imkoniyatlarini aniqlash va ularni to'liq ro'yobga chiqarishdan iborat. Ayniqsa, nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalar bilan ishlash masalasi alohida e'tibor talab qiladi. Chunki nutq inson tafakkurining eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, shaxsning fikrlash, muloqotga kirishish va atrofda voqelikni idrok etish jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Nutq rivojlanishidagi sustlik bolaning ijtimoiy faolligini, o'quv jarayoniga moslashuvini hamda o'z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatini cheklaydi. Shu sababli mazkur sohada yangi yondashuvlar va samarali metodlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.



An'anaviy logopedik mashg'ulotlar nutqdagi kamchiliklarni tuzatishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, zamonaviy texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli shaklda tashkil etish imkonini bermoqda. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamli o'yinlar, interfaol dasturlar, sensorli vositalar hamda virtual logoped tizimlari orqali bolalarda nutqni shakllantirish va rivojlantirishga keng yo'l ochilmoqda. Bunday texnologiyalar yordamida mashg'ulotlar ko'rgazmali, harakatli va hissiy jihatdan boy muhitda o'tadi. Natijada bolalarda o'rganishga bo'lgan qiziqish ortadi, faol ishtirok va ijodiy yondashuv rag'batlantiriladi.

Innovatsion yondashuvlarning eng katta afzalligi – ularning individuallashtirilgan va differensial ta'limni ta'minlash imkoniyatidir. Har bir bolaning nutqiy rivojlanish darajasi, eshitish, sezish va idrok qilish xususiyatlari farq qilgani sababli, texnologik vositalar yordamida unga mos mashg'ulot shaklini tanlash mumkin bo'ladi. Shu tarzda logopedik jarayon nafaqat nutqni shakllantirish, balki bolaning psixologik ishonchini mustahkamlash, o'z fikrini erkin bayon etish hamda muloqotga kirishish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydiki, innovatsion usullar – xususan, interfaol o'yinlar, audio-feedback, multimedia dasturlari va sensorli ta'lim muhiti – nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bunday usullar bolalarning fonematik eshituvini, so'z boyligini, artikulyatsiya aniqligini hamda grammatik fikrlash qobiliyatini samarali rivojlantiradi.

Shu bois, ushbu maqolada nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalar bilan ishlash jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion usullarning amaliy samaradorligi, ularning logopedik mashg'ulotlardagi o'rni hamda bolalar nutqini rivojlantirishdagi ijobiy natijalari keng yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalar bilan ishlashda innovatsion metodlarni qo'llash bugungi kunda maxsus pedagogikaning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuvlarning asosiy maqsadi – ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, interfaol mashg'ulotlar va sensorli vositalarni integratsiya qilish orqali bola uchun tabiiy, faol hamda hissiy jihatdan ijobiy nutqiy tajriba yaratishdan iborat.

An'anaviy logopedik mashg'ulotlarda, asosan, og'zaki mashqlar, fonematik tahlil va artikulyatsiya mashqlariga e'tibor qaratiladi. Ammo zamonaviy innovatsion yondashuvlar bu jarayonni yanada jonlantiradi, shuningdek, bolani ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Masalan, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali bola tovush va so'zlarni bir nechta sezgi kanallari – ko'rish, eshitish va sezish orqali idrok etadi. Natijada bola nutqni yaxlit tushunadi, tovush va ma'no o'rtasidagi bog'liqlikni aniqroq anglaydi, bu esa uning nutqiy tafakkurini chuqurlashtiradi.

Innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari L.S. Vygotskiy, J. Piaget va A.N. Leontyev singari mashhur pedagog va psixologlarning faoliyatga asoslangan ta'lim konsepsiyalariga tayanadi. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, bola nutqni o'zlashtirish jarayonida passiv qabul qiluvchi emas, balki faol o'rganuvchi subyekt sifatida ishtirok etishi zarur. Shu bois zamonaviy logopediya mashg'ulotlarida nafaqat tovushlarni to'g'rilash, balki bolaning muloqot jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash, ijodiy fikrlashini rag'batlantirish va nutqiy faolligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda logopedik amaliyotda nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalar bilan ishlash jarayonida turli innovatsion metodlardan keng foydalanilmoqda. Quyida ularning eng samarali turlari keltiriladi.

- a) **Interfaol o'yin texnologiyalari.** Logopedik mashg'ulotlarda interfaol o'yinlardan foydalanish bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va nutqiy faollikni oshiradi. Masalan, "So'zni top!", "Tovushni ajrat!", "Rasmni nomla!" kabi o'yinlar bolalarning fonematik eshituvini rivojlantiradi, so'z boyligini kengaytiradi hamda e'tiborini faol saqlab turadi. Planshet yoki kompyuter yordamida tashkil etilgan bunday mashg'ulotlar vizual, eshitiladigan va harakatli elementlarni uyg'unlashtirgan holda o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.
- b) **Multimedia texnologiyalari.** Nutqni shakllantirish jarayonida multimedia vositalarining o'rni beqiyosdir. Turli rasmlar, audio va video materiallar, qisqa animatsiyalar bolaning tovushni nafaqat eshitish, balki uni ko'rish orqali ham idrok etish imkonini beradi. Natijada bola so'zlarning ma'nosini chuqurroq anglaydi, xotirasi faollashadi, nutqiy tasavvurlari kengayadi hamda og'zaki nutq madaniyati shakllanadi.
- d) **Audio-feedback texnologiyasi (eshitib tahlil qilish).** Ushbu usulda bolaning talaffuzi maxsus qurilma yoki dastur orqali yozib olinadi, so'ng bola o'z nutqini tinglab, talaffuzdagi kamchiliklarni mustaqil tahlil qiladi. Bu yondashuv bolada o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini shakllantiradi, talaffuz aniqligini oshiradi va fonematik eshituvni mustahkamlaydi. Eng muhimi, bola o'z rivojlanishini real tarzda eshitib, ijobiy o'zgarishlarni his qiladi, bu esa kuchli motivatsion omil sifatida namoyon bo'ladi.



- e) **Sensorli o'quv muhiti.** Sensorli xona yoki interaktiv doskalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar nutq rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rangli shakllar, tovush chiqaruvchi o'yinchoqlar va teginish orqali javob qaytaruvchi qurilmalar yordamida bolalarda nafaqat nutqiy, balki hissiy va irodaviy rivojlanish ham rag'batlantiriladi. Ayniqsa, diqqat va eshituv faoliyati nisbatan sust bo'lgan bolalar uchun bu metod samarali reabilitatsion vosita bo'lib xizmat qiladi.
- f) **Virtual logoped dasturlari.** So'nggi yillarda ishlab chiqilgan "Speech Assistant", "ArtikSpeak", "Logopix" kabi raqamli logopedik dasturlar mutaxassislarga katta yordam bermoqda. Ushbu ilovalar individual yondashuvni ta'minlaydi, mashqlarni avtomatik tarzda takrorlash imkonini beradi va bolaning rivojlanish dinamikasini raqamli shaklda kuzatish imkonini yaratadi. Bunday virtual vositalar logopedning ishini yengillashtiradi, shu bilan birga, bolaga mustaqil mashg'ulotlar o'tkazish imkonini beradi. Natijada o'quv jarayoni interaktiv, qulay va natijador tus oladi.

Yuqoridagi innovatsion metodlar nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalarning o'qish, talaffuz, eshituv, so'z boyligi va muloqot ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi. Ular an'anaviy logopedik mashg'ulotlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, har bir bola uchun individual yondashuvni ta'minlaydi. Shu bois, innovatsion metodlarni ta'lim amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish logopedik faoliyat samaradorligini izchil oshiradi hamda maxsus pedagogikaning ilmiy-amaliy salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahridagi maxsus logopedik markazlardan birida o'tkazilib, 6–8 yosh oralig'idagi 20 nafar nutq rivojlanishida orqada qolgan bola ishtirok etdi. Tadqiqot davomida bolalar ikki guruhga ajratildi: birinchi (eksperimental) guruhda mashg'ulotlar innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etildi, ikkinchi (nazorat) guruh esa an'anaviy logopedik darslarda qatnashdi.

Uch oy davom etgan tajriba jarayonida bolalar bilan muntazam mashg'ulotlar olib borildi va ularning nutqiy rivojlanishidagi o'zgarishlar tizimli ravishda kuzatildi. Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlar qo'llanilgan eksperimental guruhda natijalar ancha yuqori bo'ldi: fonematik eshituv darajasi o'rtacha 40 foizdan 80 foizgacha oshdi, artikulyatsiya aniqligi 30 foizga yaxshilandi, so'z boyligi esa 45 foizga kengaydi. Bundan tashqari, bolalarda muloqotga kirishish ishonchi, nutq tempi va emotsional ifodalilik sezilarli darajada ortgani qayd etildi.

Mazkur natijalar innovatsion texnologiyalar logopedik mashg'ulotlarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishini, bolalarning o'quv jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlashini va nutqiy rivojlanishni tabiiy tarzda jadal-lashtirish imkonini berishini tasdiqlaydi.

Innovatsion metodlar logopedik faoliyatni zamonaviylashtirish bilan bir qatorda, bolalarning shaxsiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonini o'yin asosida tashkil etish orqali bolalarda tabiiy o'rganish istagini kuchaytiradi, ularning fikrini erkin ifodalash, muloqotga kirishish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, innovatsion metodlar o'yin asosidagi o'qitish tamo-yiliga tayanib, o'quv jarayonini bola uchun qiziqarli va tushunarli qiladi, individual yondashuvni ta'minlaydi hamda har bir bolaning nutqiy rivojlanish darajasi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish imkonini beradi. Ular bolada o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini shakllantiradi: bola o'z nutqini tinglab, tahlil qiladi va talaffuzdagi kamchiliklarni mustaqil tuzatishga intiladi. Shu bilan birga, raqamli monitoring imkonini yaratadi – bolaning rivojlanish bosqichlari va natijalari logoped tomonidan muntazam ravishda kuzatilib boriladi. Natijada, innovatsion yondashuvlar nafaqat logopedlar, balki maxsus pedagoglar, psixologlar hamda maktabgacha ta'lim tarbiyachilari uchun ham samarali metodik vosita sifatida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion texnologiyalarni logopedik amaliyotga keng joriy etish jarayonida ayrim tashkiliy va texnik cheklovlar kuzatiladi. Ba'zi ta'lim muassasalarida texnik vositalar hamda raqamli dasturlar yetarli emasligi jarayonni sekinlashtiradi. Shu bilan birga, ayrim mutaxassislarning raqamli savodxonligi yetarlicha shakllanma-gani va ota-onalarning yangi metodologiyalarga nisbatan ehtiyotkor munosabati ham bu borada muhim omil hisoblanadi.

Mazkur holatlarni bartaraf etish uchun logopedlar va maxsus pedagoglar uchun muntazam seminarlar, amaliy treninglar tashkil etish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni milliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish zarur. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularni innovatsion yondashuvlarning afzalliklari bilan tanishtirish ham alohida ahamiyatga ega.

Nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalar bilan ishlashda innovatsion pedagogik va logopedik metodlardan foydalanish bugungi kun ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Interfaol o'yinlar, sensorli texnologi-yalar, virtual dasturlar, multimedia vositalari va audio-feedback kabi yondashuvlar bolalarda nafaqat nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etadi, balki ularning psixologik ishonchini, muloqotga tayyorgarligini hamda ijtimoiy faol-ligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalar bilan ishlashda interfaol va raqamli vositalarga asoslangan yondashuvlar an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Interfaol o'yinlar, multimedia materiallari, audio-feedback texnologiyasi hamda sensorli muhit bolalarning fonematik idrokini, artikulyatsiya ko'nikmalarini va so'z boyligini samarali rivojlantirishga bevosita hissa qo'shadi. Shu bilan birga, ushbu vositalar bolalarda muloqotga kirishish istagini kuchaytiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va nutqiy faollikni oshiradi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar bu yondashuvlarning nafaqat texnik, balki psixologik jihatdan ham ijobiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Amaliy jihatdan innovatsion metodlar logopedik mashg'ulotlarni individuallashtirish va muntazam monitoring qilish imkonini beradi, bu esa har bir bolaning ehtiyojiga mos koreksion reja tuzishni osonlashtiradi. Shuningdek, texnologik yechimlar o'qituvchilar va ota-onalar uchun ham bola rivojlanish dinamikasini aniq kuzatish imkonini yaratadi. Natijada, uy sharoitida olib boriladigan doimiy reabilitatsiya jarayoni yanada samarali va izchil bo'ladi. Shu sababli, maxsus ta'lim muassasalari hamda logopedik markazlarda innovatsion vositalarni bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek, mutaxassislarining raqamli ko'nikmalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'liq samaraga erishish uchun ayrim tashkiliy va texnik masalalarni hal etish zarur. Jumladan, texnik jihozlar va moliyaviy resurslarni yetarli darajada ta'minlash, mutaxassislar va ota-onalarning yangi metodologiyalarga moslashishi uchun ta'lim dasturlarini tashkil etish hamda mahalliy sharoitga moslashtirilgan logopedik dasturlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Shu bois, innovatsion yondashuvlarni tizimli joriy etish – malaka oshirish kurslari, pilot loyihalar va ota-onalar uchun ta'lim dasturlarini o'z ichiga olgan kompleks choralar orqali amalga oshirilishi lozim.

Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalarni maqsadli va ilmiy asosda qo'llash nutq rivojlanishida orqada qolgan bolalarning kommunikativ va ijtimoiy salohiyatini oshirishda samarali, barqaror va istiqbolli yo'l ekani aniqlangan. Bunday yondashuvlar bolalarning nutqiy, psixologik va ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirib, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonov, A. (2020). Nutq rivojlantirishning samarali metodlari va usullari. Filologiya ufqlari jurnali, 1(1). Olingan manba: <https://science.jdpu.uz/index.php/hp/article/view/122>
2. Xusanova, G. (2023). Logopediyada innovatsion texnologiyalar: amaliy yondashuvlar. Toshkent: Fan va ta'lim.
3. G'ofurova, N., & Karimova, D. (2022). Maxsus pedagogika va psixologiyada zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Babayeva, D. R. (2009). Nutq o'stirish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
5. Shodieva, Q. (1995). Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. Toshkent: O'qituvchi.
6. Babayeva, D. R. (2017). Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDPU.
7. Asqarova, M. (yil ko'rsatilmagan). Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. Toshkent: O'zbekiston.
8. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press.
9. Uzbek Research Institute of Defectology. (2021). Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda innovatsion metodlar to'plami. Toshkent.
10. Ellis, R. (2017). Second Language Acquisition and the Role of Technology. London–New York: Routledge.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.